



## EKOLOGIK MUAMMOLAR VA INSONIYAT KELAJAGIGA

### TA'SIRI

*Bo'riyev Shamshod Vohid o'g'li*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi*

*E-mail: [boriyevshamshod954@gmail.com](mailto:boriyevshamshod954@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ekologik muammolar va ularning insoniyat kelajagiga ta'siri masalalari tahlil qilinadi. Maqolada ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari, ularning inson hayotiga va kelajak avlod taqdiriga ta'siri hamda ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ekologik muammolar, global isish, atrof-muhit, barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi, migratsiya.

21-asrga kelib, insoniyat o'z taraqqiyotining eng yuqori bosqichlaridan biriga chiqqan bo'lsada, bu taraqqiyot jarayoni ekologik muvozanatning buzilishi, tabiiy resurslarning cheksiz ekspluatatsiyasi va global iqlim o'zgarishlari bilan birga kechmoqda. Har yili dunyo bo'ylab yuz millionlab tonna sanoat chiqindilari atmosferaga chiqarilmoqda, suv va yer resurslari ifloslanmoqda, o'rmonlar kesilmoqda, hayvonot va o'simlik dunyosining minglab turlari yo'q bo'lib ketmoqda. Masalan, BMTning 2023-yilgi ekologik hisobotiga ko'ra, dunyo atmosferasiga yiliga taxminan 36 milliard tonna karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>) chiqariladi. Bu esa global isish jarayonini jadallashtirib, muzliklarning erishi, dengiz sathining ko'tarilishi, qurg'oqchilik va ekologik migratsiyalar kabi xavfli oqibatlariga olib kelmoqda.

Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan ekologik muammolar faqatgina biror mintaqaga xos bo'lmay, butun sayyoramiz miqyosida chuqur ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va sog'liqni saqlash muammolariga aylanib bormoqda. Misol uchun, 2022-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan e'lon qilingan



statistik ma'lumotlarga ko'ra, har yili taxminan 7 million odam havo ifloslanishidan kelib chiqadigan kasalliklar tufayli hayotdan ko'z yumadi. Ekologik muammolarning keskinlashuvi zamonaviy jamiyatdan nafaqat texnologik va ilmiy yondashuvlarni, balki ekologik ong va madaniyatning yuksalishini, barqaror rivojlanish tamoyillariga qat'iy rioya qilinishini talab qilmoqda.

Atmosfera mavzusiga kelsak atmosferaning ifloslanishi nafaqat tabiatga, balki inson sog'lig'iga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, shaharlarda havo sifati keskin yomonlashmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, havo ifloslanishi tufayli har yili 7 millionga yaqin odam o'z hayotidan ayrilmoqda. Ayniqsa, yirik sanoat hududlarida yashovchi aholida nafas olish yo'llari kasalliklari, yurak xastaliklari va hatto saraton holatlari oshib bormoqda. Chiqindilar muammosi ham ekologik inqirozning muhim jihatlaridan biridir. Global miqyosda har yili 2 milliard tonnadan ortiq maishiy chiqindi hosil qilinadi, ularning katta qismi qayta ishlanmaydi. Shu bilan birga, plastik ifloslanish tobora kuchayib, okean va dengizlar hayotini tahdid ostiga qo'ymoqda. 2024-yilgi Global Environment Outlook hisobotiga ko'ra, okean suvlarida 150 million tonnaga yaqin plastik chiqindilar mavjud bo'lib, bu raqam har yili 8 million tonna ortib bormoqda.

Ekologik muammolar orasida iqlim o'zgarishi alohida o'ringa ega. Qutb muzliklarining erishi, dengiz sathining ko'tarilishi va anomal iqlim hodisalari bu muammoning global miqyosdagi oqibatlaridir. 2023-yil aprel oyida Antarktida muz qoplami so'nggi 40 yildagi eng past darajaga yetganligi qayd etilgan. Bunday holatlar butun dunyodagi ekotizimlarga, qishloq xo'jaligi, suv resurslari va inson salomatligiga katta zarar yetkazmoqda.

Dunyodagi yirik daryolar — Nil, Gang, Yangtze va Amudaryo kabi suv manbalari keskin kamaymoqda. Aholining ortishi, sanoat ehtiyojlari va suvni isrof qilish tufayli 2050-yilga borib 4 milliarddan ortiq kishi toza ichimlik suvi tanqisligiga duch kelishi mumkinligi prognoz qilinmoqda Yer resurslarining noto'g'ri boshqarilishi ham dolzarb ekologik muammolardan biridir. Qishloq xo'jaligi uchun yerlarning haddan tashqari ekspluatatsiya qilinishi, o'rmonlarning noqonuniy



kesilishi va cho'llanish jarayonining tezlashishi global oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda.

Insoniyat faoliyatining bevosita natijasi bo'lgan ekologik muammolar sayyoramizda ekologik migratsiyani ham kuchaytirmoqda. Aholining yashash sharoiti yomonlashgan hududlardan ekologik xavfsiz mintaqalarga ko'chishi global ijtimoiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga borib 200 milliongacha inson ekologik migratsiyaga duch kelishi mumkin.

Ekologik barqarorlikning ta'minlanishi insoniyat kelajagi uchun poydevor hisoblanadi. Agar bugun bu borada qat'iy choralar ko'rilmasa, ertangi kun global ekologik falokatlarga olib kelishi muqarrar. Bu esa har bir shaxsning ekologik ongli va mas'uliyatli bo'lishini talab qiladi. Innovatsion texnologiyalar, masalan, "yashil energiya" ishlab chiqarish, bioenergetika, suv tejoychi texnikalar va chiqindilarni to'liq qayta ishlash tizimlari insoniyatni ekologik inqirozdan chiqarish uchun kuchli vosita hisoblanadi. Bu boradagi ilmiy-tadqiqotlar kengaytirilishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning qo'llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik muammolar – bu nafaqat tabiat, balki insoniyatning yashashi, sog'lomligi, farovonligi va madaniy taraqqiyoti uchun xavf tug'dirayotgan global muammo. Barcha davlatlar, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati va har bir fuqaro ushbu muammoni hal etishda o'z hissasini qo'shishi zarur.

Xulosa qilib aytganda bugun bu ekologik muammolarga befarq bo'ladigan bo'lsak kelajakda bizni juda ko'p global ekologik xavflar kutadi. Shu asosda aytish mumkinki, ekologik barqarorlik — bu faqat hukumatlar emas, balki har bir fuqaroning ongli harakati natijasida amalga oshadigan murakkab va mas'uliyatli jarayondir. Insoniyatning ekologik ongini shakllantirish, barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiq qolish va zamonaviy ilmiy yondashuvlardan foydalanish orqali ekologik muammolarni hal qilish mumkin.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Karimov I.A. Tabiatga e'tibor – kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.

– 240 b.

1. Ismatullayevna N. I. EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNINI BARTARAF ETISHDA HOZIRGI DAVRDAGI GLOBAL MUAMMOLAR //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 4. – C. 241-244.
2. Qurbonova X. B. et al. EKOLOGIK MUAMMOLARNING MOHIYATI, OQIBATLARI VA HAL ETISH YO'LLARI //TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 455-458.
3. Shuxratovna A. S. INTERFAOL TA'LIM METODLARI ASOSIDA TALABALARNI MUSTAQIL ISHLASHINI TASHKIL ETISH YO'LLARI //PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI. – 2025. – T. 12. – №. 02. – C. 162-164.